

## **Maktabgacha va maktab ta’limi tizimi xodimlarining muqobil malaka oshirish TARTIBI**

### **1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur Tartib Maktabgacha va maktab ta’limi tizimi rahbar, pedagog va mutaxassis xodimlarining (keyingi o‘rinlarda – xodimlar) uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimida muqobil malaka oshirishini tashkil etish qoidalarini belgilaydi.

2. Ushbu Tartibda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

**mentor-o‘qituvchilar** – “Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlarini tashkil etish uchun fanlar (yoki fanlar bloki) kesimida tanlab olingan yuqori malakali o‘qituvchilar;

**master-trenerlar** – mentor-o‘qituvchilarga metodik jihatdan ko‘mak beruvchi malakali mutaxassislar;

**“Uzluksiz kasbiy ta’lim” maxsus elektron platformasi** (keyingi o‘rinlarda — elektron platforma) — o‘quv modullari kontentlarini yaratish, saqlash va ta’lim oluvchilarga taqdim etish, shuningdek, ta’lim oluvchilarni ro‘yxatga olish va ularga o‘quv modullarini onlayn tarzda o‘zlashtirish imkoniyatini beruvchi maxsus elektron dasturiy tizim.

### **2-bob. Muqobil malaka oshirishning maqsad va vazifalari**

3. Malaka oshirishning muqobil shakllari xodimlarning kasbiy rivojlanishi uzluksizligini ta’minlash, ulardagi kasb mahorati va malaka saviyasining doimiy o‘sishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida joriy qilinadi.

4. Muqobil malaka oshirishning **asosiy vazifalari** quyidagilardan iborat:

xodimlarning o‘z ustida mustaqil ishlashi, ilg‘or pedagogik tajribalarni o‘rganishi va ommalashtirishini, ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug‘ullanishlarini, turli tanlovlar, olimpiadalar va ilmiy anjumanlarda ishtirok etishini, qo‘llab-quvvatlash va rahbatlantirish.

### **3-bob. Muqobil malaka oshirish shakllari va ulardan foydalanish**

5. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan har yili kelgusi kalendar yil uchun muqobil malaka oshirish sifatida tan olinadigan faoliyat turlari va ularning amal qilish muddatlari ro‘yxati tasdiqlanadi.

6. Muqobil malaka oshirish sifatida tan olinadigan faoliyat turlaridan birini

(yoki bir-nechtasini) amalga oshirgan xodim faoliyatni tasdiqlovchi hujjatni (uni olgandan so'ng) 30 kun muddatda elektron platformadagi shaxsiy kabinetiga yuklaydi.

Ushbu muddat ichida yuklanmagan yoki to'liq yuklanmagan hujjatlar e'tiborga olinmaydi.

7. Elektron platformadagi shaxsiy kabinetga yuklangan hujjatning belgilangan talablarga javob berishini o'rganish asosida xodimga muqobil shaklda malaka oshirganlik haqida sertifikat shakllantiriladi.

8. Muqobil malaka oshirganlik to'g'risidagi sertifikatda uning amal qilish muddati ko'rsatiladi.

#### **4-bob. Xodimning muqobil malaka oshirishdan keyingi malaka oshirishi**

9. Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlari har 5 yilda kamida bir marta majburiy malaka oshirishi belgilangan.

10. Muqobil malaka oshirganligi to'g'risidagi sertifikatning amal qilish muddati xodimning navbatdagi majburiy malaka oshirish muddatidan:

avvalroq tugallansa – xodim navbatdagi majburiy malaka oshirish uchun belgilangan muddatda malaka oshirishi lozim;

keyinroq tugallansa – xodim muqobil malaka oshirish to'g'risidagi sertifikatda ko'rsatilgan muddat tugagan yildan keyingi kalendar yilida majburiy malaka oshirishga yuborilishi lozim.

#### **10-bob. Yakunlovchi qoidalar**

11. Ushbu Tartib talablarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilikka muvofiq javobgar bo'ladilar.

Maktabgacha va maktab ta'limi tizimi  
xodimlarining uzluksiz kasbiy  
rivojlantirish tizimida muqobil malaka  
oshirish tartibiga ilova

**Maktabgacha va maktab ta'limi tizimi xodimlarining uzluksiz kasbiy  
rivojlantirish tizimida muqobil malaka oshirish shakllari  
RO'YXATI**

<b>T/r</b>	<b>Muqobil malaka oshirish shakllari</b>	<b>Muddatlari*</b>
1.	Maktabgacha, maktab va maktabdan tashqari ta'lim uchun darslikka mualliflik qilish	3 (uch) yil
2.	Doktorlik ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyani himoya qilish	3 (uch) yil
3.	Xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlarda (seminar, konferensiya, simpozium va boshqalarda) ma'ruza bilan ishtirok etish	1 (bir) yil
4.	Ilmiy-tadqiqot natijalari asosida xalqaro indeksatsiyalangan bazalarda (Scopus, Web of Science) e'tirof etilgan jurnallarda maqola nashr etish	3 (uch) yil
5.	“Yil tarbiyachisi” yoki “Yil o'qituvchisi” tanlovlari yakuniy bosqichi g'oliblari	3 (uch) yil
6.	“Kasbiy rivojlanish kuni” va “Metodik mahorat kuni” tadbirlarini tashkil etadigan master-trenerlar, trener (mentor)lar va mentor o'qituvchilar	2 (ikki) yil
7.	Ta'lim sohasidagi faxriy unvon yoki davlat mukofotiga sazovor bo'lish	2 (ikki) yil
8.	“Xalq ta'limi a'lochisi” yoki “Xalq ta'limi fidoiysi” mukofotiga sazovor bo'lish	1 (bir) yil
9.	Ilg'or ish tajribasini respublika miqyosida ommalashtirilganligi	1 (bir) yil
10.	Xorijiy til o'qituvchilari uchun ingliz (IELTS), nemis, fransuz, koreys, xitoy va yapon tillari bo'yicha kamida C1 va unga tenglashtirilgan darajadagi xalqaro sertifikatga ega bo'lish	2 (ikki) yil
11.	Xalqaro olimpiadalar g'oliblarini tayyorlash	2 (ikki) yil
12.	Respublika olimpiadalari g'oliblarini tayyorlash	1 (bir) yil
13.	O'qituvchi olimpiadasi g'oliblari	1 (bir) yil
14.	Umumta'lim fanini bilish darajasi to'g'risidagi milliy yoki xorijiy sertifikatga ega bo'lish	1 (bir) yil

**Izoh:**

*Muddatlari – muqobil malaka oshirganlik to'g'risidagi sertifikatning amal qilish muddati (sertifikat berilgan sanadan hisoblanadi).*

## **Muqobil malaka oshirish shaklidan foydalanish uchun asos bo'ladigan hujjatlar**

- 1) Maktabgacha, maktab va maktabdan tashqari ta'lim turlari uchun umumiy o'rta ta'lim, professional ta'lim va oliy ta'lim tashkilotlari uchun darslik muallifligi uchun vakolatli tashkilotlar tomonidan berilgan nashr guvohnomasi va nashr etilgan darslik;
- 2) Ilmiy daraja berilgani to'g'risidagi diplom;
- 3) Xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlarda (seminar, konferensiya, simpozium va boshqalarda) ma'ruza bilan qatnashganligi to'g'risida sertifikat (guvohnoma), anjuman dasturi va to'plami;
- 4) Xalqaro xalqaro indeksatsiyalangan bazalarda (Scopus, Web of Science) e'tirof etilgan jurnallarda nashr qilingan maqola guvohnomasi;
- 5) "Yil tarbiyachisi" yoki "Yil o'qituvchisi" tanlovlari yakuniy bosqichi natijalari haqidagi hujjatlar (tanlov hay'ati bayonnomasi, buyruq va qarorlar);
- 6) Maktabgacha ta'lim tizimida "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Metodik mahorat kuni" tadbirlarini tashkil etadigan master-trenerlar, trener (mentor)lar va mentor o'qituvchilar (trenerlar) tarkibini tasdiqlash to'g'risida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi va hududiy boshqarmalarining buyruqlari;
- 7) Ta'lim sohasidagi faxriy unvon yoki davlat mukofotining guvohnomasi;
- 8) "Xalq ta'limi a'lochisi" yoki "Xalq ta'limi fidoiysi" mukofotining guvohnomasi;
- 9) Maktab o'qituvchilari uchun ilg'or ish tajribasini respublika miqyosida ommalashtirilganligi haqidagi sertifikat va maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagoglari uchun Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarni qayta tayyorlash va ularni malakasini oshirish institutining kengashi qarori;
- 10) Til bilish darajasi haqidagi C1 va unga tenglashtirilgan darajadagi xalqaro sertifikat;
- 11) Xalqaro olimpiada g'oliblarining diplomlari;
- 12) Respublika olimpiadasi g'oliblarining diplomlari;
- 13) O'qituvchi olimpiadasi g'oliblarining diplomlari;
- 14) Umumta'lim fanini bilish darajasi to'g'risidagi milliy yoki xorijiy sertifikat.

*\* Hujjatlarning nusxalari va qarorlarning ko'chirmalari taqdim etililadi.*